MEHMONXONA BIZNESIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	1050
Usmanova Gulida Valiyevna	
ETHICAL ASPECTS OF ECOTOURISM: BALANCING SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND MORAL RESPONSIBILITY.....	1055
Gulbakhor Sattarovna Abdullakhanova	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1062
Sobirov Abdurasul Abdugafarovich	



KADRLAR BOSHQARUVIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1068
Urazov Sadulla Shodiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY JINOYATLARNING OLDINI OLISHDA KOMPLAENS-AZORATNING ROLI.....	1074
Zokirov Ismoiljon Ibroximovich	
AGROSERVIS SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI	1078
Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Feruz Nematullayevich Abilov	
KO'MIR UCHUVCHI KULI ASOSIDAGI FLY ASH BETON VA GEOPOLIMER MATERIALLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN IQTISODIY VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	1083
Muradov Botir Xayat	
КРЕАТИВНАЯ ЭКОНОМИКА В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПРЕДПОСЫЛКИ В УЗБЕКИСТАНЕ	1091
Рахимова Манзура Хамид кизи	
DUE DILIGENCE IN AUDITING AS A FACTOR ECONOMIC EFFICIENCY IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	1098
Sidikov Dilmurod	
MAJBURIYATLAR HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1102
Ergasheva Vasila Abdumajitovna	
ИННОВАЦИОННЫЕ МАРКЕТИНГОВЫЕ СТРАТЕГИИ И ПРОЦЕССЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1106
Рахимова Тамила Баходур кизи	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1113
Abdusattarova Dildora Bohodirovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH BORASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1120
Djurayeva Lola Abdugabbarovna	
HUDUDLARDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA DAVLAT BUDJETIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1125
Egamnazarova Gulnoza Xolmurod qizi	
O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI ISTIQBOLIDA BARQAROR RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI HAMDA ESG INDIKATORLARINI JORIY ETISH	1129
Mirzaaxmedova Nodira Asqarali qizi, Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi	
O'ZBEKISTONDA KREDIT VA MOLIYAVIY TIZIMNI MODERNIZATSIYALASH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	1135
Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich	
O'ZBEKISTON FRANCHAYZING BRENDLARINING XALQARO BOZORLARDA IMIJINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY BRENDUKLAR YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY YECHIMLARI	1140
Xodjayev Anvar Rasulovich	
MINTAQANING INVESTITSIYA OQIMLARI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK TAHLILI	1147
G'oyibnazarov Muxammad Xamidbekovich	
O'ZBEKISTON AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH STRATEGIYALARI VA IMKONIYATLARI	1152
No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION FAOLIYATI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	1157
Xakimov Akbar Anvarovich	



TIJORAT BANKLARI XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	1162
Atamuradov Bozorboy Berdimuratovich	
O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	1168
Sayitbayev Shermirza Datkamirzaevich	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ БЮДЖЕТОВ ФТИЗИАТРИЧЕСКИХ УЧРЕЖДЕНИЙ ПРИ ПЕРЕХОДЕ К ОПЛАТЕ ПО КЛИНИКО-ЗАТРАТНЫМ ГРУППАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1173
Эрматов Зоҳид Шавкатович	
SUSTAINABLE TOURISM IN KARAKALPAKSTAN: LINKING CULTURE, COMMUNITIES, AND ECOLOGY.....	1179
Indira Ermekebaeva	
TARIFLASH VA REZERVASHNING ILMIY-AMALIY MODEL (O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN).....	1184
Maxmudov Komoliddin Rozmetovich	
XORIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	1188
Akmalova Ziyoda Doniyorovna	
ECONOMIC EFFECTS OF GASTRONOMIC TOURISM: AN ANALYSIS OF TOURISTS' FOOD EXPENDITURE PATTERNS.....	1193
Iroda Abdieva G'ayrat kizi	
WAYS OF IMPROVING AGRITOURISM IN UZBEKISTAN	1198
Ruxangiz Mirfayzovna Mavlonova, Istamkhuja Olimovich Davronov	
TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI.....	1203
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1208
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISH: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR.....	1213
Zokirov Fayzullo Maxamatovich	
ЦИФРОВОЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПРОДВИЖЕНИЯ БРЕНДА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА НА МЕЖДУНАРОДНОМ ТУРИСТИЧЕСКОМ РЫНКЕ.....	1219
Суюнова Камилла Бахромовна, Файзуллаев Аслиддин Сафар угли	
ТЕОРИЯ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО ВЫБОРА: ОБЗОР КЛАССИЧЕСКИХ ПАРАДИГМ, МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ ПОДХОДОВ И СОВРЕМЕННЫХ ВЫЗОВОВ.....	1223
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К МОНЕТАРНОЙ ПОЛИТИКЕ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ИНФЛЯЦИЮ И ЗАНЯТОСТЬ	1227
Камилова Наргиза Абдукажоровна, Асадова Шоҳида Азаматовна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TAKOFUL SUG'URTA FONDLARINI SHAKLLANTIRISH.....	1232
Alimov Sherzod Choriyevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1238
Bo'taev O'tkir Eshboevich	
PUL MABLAG'LARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI.....	1242
Xalikov Baxrom Shomurovich	
O'ZBEKISTON SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA ENERGIYA TA'SIRINI QISQA VA UZOQ MUDDATLI BAHOLASH SAMARASI	1247
Jabbarov Nurbek Atanazarovich	
IQTISODIYOTDA ENERGIYA TIZIMINING TUTGAN O'RNINI MODELLASHTIRISHDA ARDL MODELINING NAZARIY AHAMIYATI	1252
Kuralbayev Jo'rabek Oybekovich	



DAVLAT TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	1256
Salamov Islom Tashkazakovich	
МЕХАНИЗМ ОПТИМИЗАЦИИ СТРУКТУРЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА.....	1263
Касимова Наргиза Сабитджановна	
SIRKULAR BIZNES-MODELLARNI MOLIYALASHTIRISH MODELLARI EVOLYUTSIYASI.....	1268
Isamuxamedov Boxodir Baxramovich	
HUDUDIIY MARKETING KONSEPSIYASI ASOSIDA NAVOIY VILOYATINING EKOTURISTIK RESURSLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1274
Shodiyev Sanjar Ruzukulovich, Abdurahmonova Shahlo Serali qizi	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	1281
Sabirov Xamid Qo'ziboyevich	
HUDUDLARNI BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNI TA'MINLASHDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	1285
N.Bekmurodov	
KORXONALAR INVESTITSION VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	1291
Gafurova Umida Fatixovna	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI	1296
Fayziyev Orifjon Olimovich	
РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ И ЦИФРОВЫХ НАВЫКОВ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА.....	1302
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INVESTITSIYA SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI: O'ZBEKISTON VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR QIYOSIY TAHLILI	1310
Mangliyev Bexzod To'raboy o'g'li	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINING TRANSFORMATSIYASI	1315
Ruziyev Baxtiyor Salimboyevich	
MEHNAT MUNOSATLARINI TARTIBGA SOLISHDA RAQAMLI PLATFORMALARINING O'RNI	1321
I.A.Bakiyeva, S.A.Bozorova	
O'ZBEKISTONDA TURISTIK-REKREATSION INFRATUZILMANING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	1327
Usmanova Zumrad Islamovna	



O'ZBEKISTONDA TURISTIK-REKREATIONS INFRATUZILMANING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI



Usmanova Zumrad Islamovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
"Marketing" kafedrası dotsenti, PhD
usmanovazumrad793@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0006-0283-9645>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda turistik-rekreatsioon infratuzilmaning 2015–2024-yillardagi rivojlanish tendensiyalari segmentlar kesimida tahlil qilingan. Xususan, sanatoriya-kurort muassasalari, dam olish tashkilotlari va turistik bazalar faoliyati talab va taklif ko'rsatkichlari asosida baholangan. Tadqiqotda muassasalar soni, koya fondi, jami joylashtirilgan shaxslar va tunashlar dinamikasi bo'yicha qiyosiy tahlil amalga oshirilgan.

Natijalar turistik-rekreatsioon bozorda differensiyalashgan rivojlanish modeli shakllanganini ko'rsatdi: sanatoriya-kurort segmentida barqaror o'sish kuzatilgan bo'lsa, dam olish tashkilotlari segmentida tarkibiy yangilanish va transformatsiya jarayonlari namoyon bo'lgan. Turistik bazalar segmenti esa, ayniqsa ichki turizm rivoji hisobiga, yuqori moslashuvchanlik va o'sish salohiyatini namoyish etgan.

Tadqiqot natijalari turistik infratuzilmani segmentlashtirilgan yondashuv asosida rivojlantirish, xizmatlar sifatini oshirish va hududiy turizm salohiyatidan samarali foydalanish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Kalit so'zlar: turistik-rekreatsioon infratuzilma, sanatoriya-kurort muassasalari, dam olish tashkilotlari, turistik bazalar, talab va taklif tahlili, tunashlar dinamikasi, ichki turizm, hududiy rivojlanish, infratuzilma samaradorligi, segmentlashtirilgan rivojlanish siyosati.

Abstract. This article analyzes the development trends of Uzbekistan's tourism and recreational infrastructure during 2015–2024 by individual segments. In particular, the activities of sanatorium-resort institutions, recreation organizations, and tourist bases were evaluated based on supply and demand indicators. A comparative analysis of the dynamics of the number of institutions, bed capacity, total number of accommodated visitors, and overnight stays was conducted.

The results reveal the formation of a differentiated development model in the tourism and recreational market. The sanatorium-resort segment demonstrates stable growth, while the recreation organizations segment shows structural modernization and transformation processes. At the same time, the tourist base segment exhibits strong adaptability and growth potential, mainly driven by the expansion of domestic tourism.

The findings scientifically substantiate the importance of developing tourism infrastructure based on a segmented approach aimed at improving service quality and ensuring the efficient utilization of regional tourism potential.

Key words: tourism and recreational infrastructure, sanatorium-resort institutions, recreation organizations, tourist bases, supply and demand analysis, overnight stay dynamics, domestic tourism, regional development, infrastructure efficiency, segmented development policy.



Аннотация. В данной статье проанализированы тенденции развития туристско-рекреационной инфраструктуры Узбекистана за 2015–2024 годы в разрезе отдельных сегментов. В частности, деятельность санаторно-курортных учреждений, организаций отдыха и туристических баз оценена на основе показателей спроса и предложения. В исследовании проведён сравнительный анализ динамики количества учреждений, коечного фонда, общего числа размещённых лиц и количества ночёвок.

Результаты показали формирование дифференцированной модели развития туристско-рекреационного рынка: сегмент санаторно-курортных учреждений характеризуется устойчивым ростом, в сегменте организаций отдыха наблюдаются процессы структурного обновления и модернизации, тогда как сегмент туристических баз демонстрирует высокую адаптивность и потенциал роста, прежде всего за счёт развития внутреннего туризма.

Полученные результаты научно обосновывают необходимость развития туристической инфраструктуры на основе сегментированного подхода, направленного на повышение качества услуг и эффективное использование регионального туристического потенциала.

Ключевые слова: туристско-рекреационная инфраструктура, санаторно-курортные учреждения, организации отдыха, туристические базы, анализ спроса и предложения, динамика ночёвок, внутренний туризм, региональное развитие, эффективность инфраструктуры, сегментированная политика развития.

KIRISH

So'nggi yillarda turizm sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining strategik yo'nalishlaridan biri sifatida jadal rivojlanib bormoqda. Turizm nafaqat valyuta tushumlarini oshirish va aholi bandligini ta'minlashda, balki hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini kuchaytirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, turistik-rekreatsion xizmatlar bozori aholi salomatligini tiklash, sifatli dam olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ichki turizmni yanada rag'batlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Turistik infratuzilmaning asosiy elementi bo'lgan joylashtirish vositalari tizimi bozordagi mavjud talabni samarali qondirish imkoniyatlarini belgilaydi. Shu sababli infratuzilmaning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini kompleks tahlil qilish sohaning samaradorligini baholash, mavjud salohiyatdan oqilona foydalanish va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turistik infratuzilmaning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, ingliz olimi J. Krippendorf o'zining "Tourism in the System of Industrial Society" (1986) asarida turizm infratuzilmasi hududiy iqtisodiyotning tarkibiy elementi sifatida xizmat qilishini va uning rivojlanishi transport, joylashtirish vositalari hamda xizmatlar tizimining kompleks rivojlanishiga bog'liqligini asoslab bergan. Uning fikricha, rekreatsion infratuzilma rivojlanishi hududning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash bilan bir qatorda, aholi turmush sifatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Turizm tizimini ilmiy jihatdan asoslab bergan olimlardan biri N. Leiper hisoblanadi. U turizmni o'zaro bog'liq elementlardan iborat tizim sifatida ko'rib, uning asosiy tarkibiy qismlaridan biri aynan turistik infratuzilma ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, turistlar oqimining shakllanishi va barqaror rivojlanishi joylashtirish vositalari, rekreatsion obyektlar va xizmatlar sifati bilan bevosita bog'liq (Leiper, 1979).

Shuningdek, turizm iqtisodiyoti sohasida taniqli olim C. Cooper, J. Fletcher, D. Gilbert va S. Wanhill o'z tadqiqotlarida turistik infratuzilmani turizm industriyasining asosiy moddiy bazasi sifatida tavsiflaydi. Ularning fikriga ko'ra, mehmonxonalar, sanatoriyalar, dam olish maskanlari va turist bazalarining rivojlanishi turistlar talabini shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi va turizmning raqobatbardoshligini belgilaydi (Cooper et al., 2008).

Hududiy turizm infratuzilmasi rivojlanishining iqtisodiy samaradorligi masalalari rus olimi A. Aleksandrova tomonidan ham chuqur o'rganilgan. Uning ta'kidlashicha, turistik infratuzilmaning rivojlanish darajasi hududga turistlar oqimini jalb qilish imkoniyatlarini belgilaydi hamda turizm daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlaydi. Olim infratuzilma rivojlanishini turizmning asosiy raqobat omillaridan biri sifatida baholaydi (Aleksandrova, 2010).

Rekreatsion turizm infratuzilmasining sog'lomlashtirish va dam olish tizimidagi o'rnini rus olimi V. Kvartalnov ham alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, sanatoriya-kurort muassasalari va dam olish maskanlari aholining sog'lig'ini tiklash bilan birga, turizm industriyasining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi (Kvartalnov, 2002).



O'zbekistonlik iqtisodchi olimi M. Alimova o'z ilmiy ishlarida hududiy turizmni rivojlantirishda infratuzilmaning ahamiyatiga alohida to'xtalib, turistik infratuzilmaning rivojlanishi hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim omil ekanligini asoslab bergan. Olimaning fikricha, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish hududiy iqtisodiyotning diversifikatsiyasiga xizmat qiladi (Alimova, 2017).

Shuningdek, iqtisodchi olimi Sh. Ergashxodjayeva turizm infratuzilmasini rivojlantirishda zamonaviy marketing va boshqaruv mexanizmlarining ahamiyatini asoslab, turistik xizmatlar sifatini oshirish va turistlar oqimini ko'paytirishda infratuzilmaning hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi (Ergashxodjayeva, 2022).

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turistik-rekreatsion infratuzilma turizm industriyasining asosiy tarkibiy qismi hisoblanib, uning rivojlanish darajasi turizm xizmatlari hajmi, turistlar oqimi va hududiy iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, turistik infratuzilmaning alohida segmentlari, jumladan, sanatoriya-kurort muassasalari, dam olish tashkilotlari va turist bazalari kesimida talab va taklif mutanosibligini kompleks tahlil qilish masalalari ilmiy jihatdan yanada chuqur o'rganishni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida turistik-rekreatsion infratuzilmaning rivojlanish tendensiyalarini ilmiy asosda baholash maqsadida bir qator zamonaviy iqtisodiy-statistik usullardan foydalanildi. Jumladan, turistik infratuzilma ko'rsatkichlarining vaqt davomida o'zgarish dinamikasini aniqlash uchun dinamik qatorlar tahlili amalga oshirildi.

Shuningdek, infratuzilma obyektlari soni, joylashtirish sig'imi va ulardan foydalanish ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarni baholash maqsadida mutlaq va nisbiy o'sish sur'atlarini hisoblash usuli qo'llanildi. Turistik xizmatlar bozorida mavjud imkoniyatlar va ulardan foydalanish samaradorligini aniqlash uchun talab va taklif ko'rsatkichlarini o'zaro solishtirish asosida tahlil olib borildi.

Bundan tashqari, turistik-rekreatsion infratuzilmaning alohida segmentlari, ya'ni sanatoriya-kurort muassasalari, dam olish tashkilotlari va turistik bazalar kesimida rivojlanish xususiyatlarini aniqlash maqsadida segmentlashtirilgan iqtisodiy tahlil usuli qo'llanildi. Turli yillar va infratuzilma segmentlari bo'yicha ko'rsatkichlarning o'zaro farqlarini aniqlash va ularning rivojlanish tendensiyalarini baholash uchun esa solishtirma statistik usuldan foydalanildi.

Tadqiqotning axborot bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanildi. Mazkur ma'lumotlar tadqiqot natijalarining ishonchligini va ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston hududlarida turistik-rekreatsion soha infratuzilmasining rivojlanish darajasini tadqiq etish ushbu sohaning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini ilmiy asosda va xolis baholashda muhim metodologik ahamiyatga ega. Turizm infratuzilmasi, eng avvalo, joylashtirish vositalari tizimi, ularning quvvati, xizmat ko'rsatish sifati hamda hududiy joylashuv xususiyatlari orqali turistik oqimlarni qabul qilish, ularga xizmat ko'rsatish va natijada iqtisodiy hamda ijtimoiy samaradorlikka erishish imkoniyatlarini belgilaydi.

Shu nuqtai nazardan, 2015–2024-yillar davomida joylashtirish vositalari soni, ularning o'rinlar quvvati, joylashtirilgan shaxslar miqdori va tunab qolishlar dinamikasi bo'yicha olib borilgan tahlil infratuzilmaning hududlar kesimida shakllanish tendensiyalari hamda rivojlanish sur'atlarini kompleks baholash imkonini yaratadi.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston hududlarida turistik-rekreatsion infratuzilmaning rivojlanishida muayyan hududiy tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Jumladan, ayrim turistik markazlarda infratuzilmaning jadal sur'atlarda o'sishi kuzatilgan bo'lsa, boshqa hududlarda mavjud salohiyatdan yanada samarali foydalanish imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi. Shu bilan birga, joylashtirish vositalari soni va ulardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqlar infratuzilmani nafaqat miqdoriy, balki sifat ko'rsatkichlari asosida ham baholash zarurligini asoslaydi.

Bu holat turistik-rekreatsion sohani barqaror va mutanosib rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan strategik qarorlar qabul qilish zarurligini ko'rsatadi. Shu sababli, turistik-rekreatsion soha infratuzilmasining rivojlanish holati va asosiy tendensiyalari hududlar kesimida chuqur o'rganilib, uning turistik oqimlarga ta'siri hamda samaradorlikni oshirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

1-jadval. O'zbekiston turizm bozorida rekreatsion xizmatlar: talab va taklif tahlili¹

Ko'rsatkichlar		2015	2019	2021	2024	2024/2015, %
Sanatoriya-kurort muassasalari	Soni, birlik	157	201	179	154	98,0
	Koyka fondi (joylar soni), birlik	22098	28073	27195	22631	102,4
	Jami joylashtirganlar soni, kishi	310241	528308	381731	476870	153,7
	Shulardan O'zbekiston fuqarolari, kishi	305575	503803	369559	448722	146,8
	tunashlar soni, bir	4214597	5139698	3707591	4397207	104,3
	O'zbekiston fuqarolari tunashlar soni	4205206	4991953	3616349	4180478	99,4
Dam olish tashkilotlar	Soni, birlik	209	86	57	108	51,7
	Koyka fondi (joylar soni), birlik	35734	4742	5163	6654	18,6
	Jami joylashtirganlar soni, kishi	260413	75075	238746	166805	64,1
	Shulardan O'zbekiston fuqarolari, kishi	258569	69813	236964	157210	60,8
	tunashlar soni, bir	1588425	196373	348876	462302	29,1
	O'zbekiston fuqarolari tunashlar soni	1585257	187635	342620	122084	7,7
Turistik bazalar	Soni, birlik	4	8	3	4	100
	Koyka fondi (joylar soni), birlik	318	382	128	201	63,2
	Jami joylashtirganlar soni, kishi	4568	4365	1979	4323	94,6
	Shulardan O'zbekiston fuqarolari, kishi	2190	579	469	3763	171,8
	tunashlar soni, bir	15499	5249	3289	11497	74,2
	O'zbekiston fuqarolari tunashlar soni	13110	1308	1335	9969	76

Bugungi kunda O'zbekistonda sanatoriya-kurort muassasalari soni 2015-yilda 157 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 154 tani tashkil etib, deyarli barqaror holat saqlangan (98,0%). Shu bilan birga, koyka fondi 22 098 tadan 22 631 tagacha oshib, 1,02 barobar o'sish qayd etilgan.

Eng muhim jihat shundaki, jami joylashtirilganlar soni 310 241 nafardan 476 870 nafargacha o'sib, 1,54 barobarga oshgan. Bu taklif nisbatan barqaror bo'lgan sharoitda talab sezilarli darajada ortganini ko'rsatadi.

Tunashlar soni ham 4,21 mln tadan 4,39 mln tagacha ko'paygan (1,04 barobar). Ayniqsa, ichki turizm ulushi yuqori saqlanib qolgan. Demak, sanatoriya-kurort segmenti rekreatsion xizmatlar bozorida barqaror va ijtimoiy ahamiyati yuqori segment sifatida shakllangan.

Dam olish tashkilotlari: taklif qisqarishi va talabning notekis dinamikasi. Dam olish tashkilotlari soni 209 tadan 108 tagacha kamayib, qariyb 2 barobar qisqargan (51,7%). Koyka fondi esa 35 734 tadan 6 654 tagacha kamaygan (18,6%), ya'ni taklif hajmi keskin pasaygan.

Jami joylashtirilganlar soni ham 260 413 nafardan 166 805 nafargacha tushgan (64,1%). Tunashlar soni esa 1,58 mln tadan 462 mingtagacha qisqargan (29,1%). Bu holat mazkur segmentda infratuzilmaning qisqarishi va bozor pozitsiyasining zaiflashganini anglatadi.

Shu bilan birga, 2021–2024-yillarda muayyan tiklanish dinamikasi kuzatilgani pandemiyadan keyin bozorda qisman barqarorlashuv yuz berganini ko'rsatadi.

Turistik bazalar: kichik hajmli, lekin moslashuvchan segment. Turistik bazalar soni 4 tadan 4 tagacha o'zgarmagan (100%), biroq koyka fondi 318 tadan 201 tagacha qisqargan (63,2%).

Jami joylashtirilganlar soni 4 568 nafardan 4 323 nafargacha deyarli barqaror saqlangan (94,6%). Ayniqsa, O'zbekiston fuqarolari ulushining 1,7 barobarga oshgani ichki turizmning mazkur segmentda faollashganini ko'rsatadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida hisoblangan



Biroq tunashlar soni 15 499 tadan 11 497 tagacha kamaygan (74,2%), bu o'rtacha qolish muddati qisqarganini anglatadi.

Shuningdek, jadval ma'lumotlari quyidagi tendensiyalarni ko'rsatadi:

- sanatoriya-kurort muassasalarida taklif barqaror saqlangan holda talab 1,5 barobarga oshgan, bu segment yuqori ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikka ega;
- dam olish tashkilotlarida taklif 2 barobarga qisqargan, talab esa notekis dinamikaga ega bo'lib, bozor ulushi pasaygan;
- turistik bazalar kichik hajmli segment bo'lib, ichki turizm hisobiga barqarorlik saqlangan;
- o'rtacha tunash davomiyligining ayrim segmentlarda qisqarishi qisqa muddatli dam olish modeli shakllanayotganini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari turistik-rekreatsion bozorda segmentlar kesimida o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, sanatoriya-kurort muassasalarida talabning yuqori darajada shakllangani va mavjud infratuzilmaning samarali faoliyat yuritayotgani kuzatildi. Dam olish tashkilotlari segmentida esa taklif hajmining qisqarishi natijasida bozor ulushining o'zgarishi qayd etildi. Pandemiya keyingi davrda ushbu segmentda tiklanish jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgan bo'lsa-da, segmentlar o'rtasidagi rivojlanish sur'atlarida ma'lum tafovutlar saqlanib qolmoqda.

Olib borilgan tahlillar rekreatsion xizmatlar bozorida segmentlar kesimida differensiyalashgan rivojlanish modeli shakllanganini tasdiqlaydi. Sanatoriya-kurort muassasalari barqaror faoliyat yurituvchi va yuqori ijtimoiy samaradorlikka ega segment sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, dam olish tashkilotlari segmentida mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish va bozor pozitsiyasini mustahkamlash uchun qo'shimcha rivojlantirish choralari amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Shuningdek, turistik-rekreatsion infratuzilmani yanada rivojlantirishda segmentlashtirilgan yondashuv asosida strategik siyosat yuritish, talab dinamikasiga mos ravishda taklifni optimallashtirish hamda sanatoriya-kurort xizmatlari bilan bir qatorda zamonaviy va innovatsion dam olish formatlarini qo'llab-quvvatlash muhim strategik ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv turizm sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlash, xizmatlar sifatini oshirish va rekreatsion xizmatlar bozorining umumiy samaradorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mamlakatda turistik-rekreatsion xizmatlar bozori bir xil sur'atda emas, balki segmentlar kesimida turlicha rivojlanish trayektoriyasiga ega bo'lgan differensiyalashgan model asosida shakllanmoqda. Ya'ni, bozorning ayrim tarmoqlari barqaror o'sish va yuqori samaradorlik ko'rsatkichlarini namoyon etayotgan bo'lsa, boshqa segmentlarda tarkibiy yangilanish va transformatsiya jarayonlari amalga oshirilmoqda. Bu holat infratuzilmani boshqarishda yagona universal yondashuvdan ko'ra, maqsadli va segment xususiyatlariga mos strategiyalarni ishlab chiqish muhimligini ko'rsatadi.

Birinchidan, sanatoriya-kurort muassasalari segmenti nisbatan barqaror institutsional tuzilishga ega bo'lib, talab dinamikasida ijobiy o'sish kuzatilmoqda. Joylashtirilganlar sonining ortishi va tunashlar ko'rsatkichlarining yuqori darajada saqlanib qolishi ushbu segmentning ijtimoiy ahamiyati va iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi. Taklif hajmi keskin o'zgarmagan sharoitda talabning ortishi infratuzilmadan foydalanish darajasi oshganini anglatadi. Bu esa sanatoriya-kurort xizmatlarining aholi salomatligini tiklash va ichki turizmni rivojlantirishda ustuvor yo'nalish sifatida mustahkam o'rin egallayotganini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, dam olish tashkilotlari segmentida infratuzilmaning qisqarishi va foydalanish ko'rsatkichlarining pasayishi kuzatilgan bo'lsa-da, bu holat mazkur yo'nalishda modernizatsiya va rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar mavjudligini anglatadi. Muassasalar soni va quvvatining kamayishi bozor sharoitlarining yangilanayotganini va xizmatlar sifatini oshirishga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, ushbu segmentni modernizatsiya qilish, xizmatlar diversifikatsiyasini ta'minlash va zamonaviy dam olish formatlarini joriy etish uning raqobatbardoshligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, turistik bazalar segmenti nisbatan kichik hajmga ega bo'lishiga qaramasdan, ichki turizm hisobiga barqaror rivojlanish imkoniyatlarini namoyon etmoqda. Ayniqsa, mahalliy turistlar ulushining ortib borayotgani ushbu segmentning ichki bozor talablariga moslashuvchanligini tasdiqlaydi. Bu esa ichki turizmni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari turistik infratuzilmaning rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, olingan natijalar turistik-rekreatsion infratuzilmani rivojlantirishda segmentlashtirilgan siyosat yuritish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Ya'ni, har bir segmentning iqtisodiy salohiyati, talab xususiyatlari va hududiy joylashuv omillari hisobga olingan holda alohida strategik yondashuvni ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa infratuzilma resurslaridan samarali foydalanish, hududlararo mutanosib rivojlanishni ta'minlash va turistik xizmatlar bozorining barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.



Shu tariqa, turistik-rekreatsion bozor rivojlanish tendensiyalari ushbu sohani kompleks va tizimli yondashuv asosida boshqarish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va uni talab dinamikasiga mos ravishda takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur yondashuv turizm sohasining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash, xizmatlar sifatini oshirish hamda milliy turizm salohiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Cooper, C. Essentials of Tourism. 2-nashr. Harlow: Pearson Education Limited, 2016. – 504 p.
2. Gretzel, U., Sigala, M., Xiang, Z., Koo, C. Smart Tourism: Foundations and Developments. Electronic Markets, 2015, Vol. 25, No. 3, pp. 179–188.
3. Usmanova, Z. I., Alimova, M. T. Development of the tourism and recreation complex as an effective lever for the restoration of the tourism sector in Uzbekistan after the pandemic. Solid State Technology, 2020, Vol. 63, No. 4, pp. 5193–5206. (Scopus Q3) <https://solidstatetechnology.us/index.php/JSST/article/view/3797>
4. Usmanova, Z. I. Development of tourist and recreational cluster of Samarkand region and its impact on domestic business. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 2022, No. 4, pp. 39–44.
5. Винокуров М.А., Что такое туризм?/научная статья- www.dissercat.com
6. Тўхлиев И.С., Қудратов Ғ.Х., Пардаев М.Қ. Туризмни режалаштириш. Дарслик.-Тошкент, «Иқтисодиёт-молия» нашриёти. 2010.-254 бет.
7. Rayzberg, B. A., Fatxutdinov, R. A. Upravlenie ekonomikoy. Moskva: Biznes shkola "Intel-Sintez", 2013. – 784 p.
8. Райзберг Б.А., Фатхутдинов Р.А. Управление экономикой. – М.: ЗАО «Бизнес школа «Интел-Синтез», 2013. -784 с. 8. Градов А.П. Национальная экономика. – СПб.: «Специальная литература», 2016. -316 с.
9. Маматкулов Х.М. Хизмат кўрсатиш соҳасига оид атамалар ва иборалар изоҳли луғати.- Т.: "IQTISOD-MOLIYA", 2010. - 217 б. 10.
10. Каххори Ш. А., Шулькина Т. М. Туристский примере потенциал территории международной и его маркетинговая региона оценка // Молодой ученый. – 2015. – № 10.2. – С. 68–73.
11. Islamovna U. Z. Development of tourist and recreational cluster of Samarkand region and its impact on domestic business //European Multidisciplinary Journal of Modern Science. – 2022. – Т. 4. – С. 39-44. 12.
12. Islamovna U. Z., Toirxonovna A. M. Development of the tourism and recreation complex as an effective lever for the restoration of the tourism sector in Uzbekistan after the pandemic //Solid State Technology. – 2020. – Т. 63. – №. 4. – С. 5193-5206.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>